

UO‘K:436.442(294.4)

**BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI
FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARINI FALSAFIY TAHLILI**

Anvarova Lobar Sherzod qizi

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

anvarovalobar9@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mehnat samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirish haqida fikr yuritish, amaliy mehnat samaradorligi tushunchasi korxona yoki tarmoqdagi mehnat unumdorligini ifodalash imkonini beradi. Mehnat jarayoni ana shu omillarni hisobga olgan holda tashkil etilgan jamiyatda korxona va tashkilotlarda mehnat unumdorligi bosqichma-bosqich oshib bormoqda

Kalit so'zlar: mehnat unumdorligi, haqiqiy mehnat unumdorligi, haqiqiy mehnat unumdorligi, potentsial mehnat unumdorligi, islohotlarning mehnat unumdorligiga ta'siri, mehnat unumdorligini pasaytiruvchi omillar, mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari.

**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВОПРОСОВ ПОВЫШЕНИЯ
БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ УСТОЙЧИВЫЙ
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТА**

Анварова Лобар

Докторант Каршинского государственного университета

anvarovalobar9@gmail.com

Аннотация: В статье автор задумывается о повышении эффективности труда и производительности труда. По его словам, понятие практической эффективности труда позволяет выразить производительность труда на предприятии или в отрасли. Производительность труда на предприятиях и в организациях постепенно повышается в том обществе, где трудовой процесс организован с учетом этих факторов. Также в статье подчеркивается, что производительность труда проявляется в экономической, политической и духовной формах.

Ключевые слова: производительность труда, фактическая производительность труда, наличная производительность труда, потенциальная производительность труда, влияние реформ на производительность труда, факторы, снижающие производительность труда, возможности повышения производительности труда.

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE ISSUES OF INCREASE THE WELFARE OF THE POPULATION THROUGH SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

Anvarova Lobar

Doctoral student of Karshi State University

anvarovalobar9@gmail.com

Abstract: In the article, the author thinks about increasing labor efficiency and labor productivity. According to him, the concept of practical labor efficiency allows to express the productivity of labor in an enterprise or industry. In a society where the labor process is organized taking these factors into account, labor efficiency in enterprises and organizations increases gradually. Also, the article emphasizes that labor productivity occurs in economic, political and spiritual forms.

Keywords: labor productivity, actual labor productivity, available labor productivity, potential labor productivity, the impact of reforms on labor productivity, factors that reduce labor productivity, opportunities to increase labor productivity.

KIRISH

Har qanday davlatning bosh maqsadi aholining moddiy farovonligi va madaniy darajasini oshirishdan iborat. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham respublikada kelgusi yetti yilda barqaror iqtisodiy o‘rta o‘rta orqali aholi farovonligini oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratildi [1]. Bu maqsadni amalga oshirish uchun barqaror iqtisodiy o‘rta o‘rta orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish sur‘atlarini yanada takomillashtirish, ayniqsa uning samaradorlik darajasini

to'xtovsiz oshirib borish zarur. Chunki iqtisodiy samaradorlik birinchi navbatda ijtimoiy mehnat unumdorligini jadal o'stirishga bevosita bog'liq. Mehnat unumdorligi ishlab chiqarish samaradorligining asosiy belgilovchi ko'rsatkichlarildan biri bo'lib, unda kishilar ishlab chiqarishdagi faoliyatining yanada oshib borayotganligini ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda iqtisodiy jarayonlarni O'zbekiston prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ma'ruzalarida (2022), Myuller D.K. "Anglo-russkiy slovar" (1992), Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti"(1994), Kostin L.A. Proizvoditelnost truda texnicheskiy progress (2016), J.SH. Tuxtabayev. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini omilli tahlil qilish uslubi(2013).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda mehnat unumdorligining o'sishi ishlab chiqarishdagi xodimlarning ish haqi va boshqa moddiy daromadlarini o'stirishga va bu orqali aholi farovonligini oshirishga zamin yaratadi. Negaki mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, ish haqi ham shunchalik yuqori bo'ladi, bu esa fuqaroning moddiy farovonligini yanada oshishiga xizmat qilishi tahlil qilingan va o'rganolgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, yangi jamiyatni barpo qilishda har tomonlama chuqur o'rganib tahlil qilishni talab qiladigan qator masalalar yuzaga keladi. Mazkur masalalarning ijobiy hal etilishi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muvaffaqiyatli faoliyatga olib boradi. Albatta, ana shunday muammolardan biri bu jamiyat hayotining ijtimoiy va iqtisodiy sohalariga tegishli bo'lgan mehnat sohasidagi muammolardir. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi mehnat resurslaridan samarali foydalanish darajasini ko'rsatishi bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini aks ettiradi. Shu bois mehnat samaradorligini orttirish masalalari bugungi kunda juda dolzarb masalalar qatorida turadi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal rivojlanib, uning tarkibida sanoat ulushi ortib bormoqda. Bu o'sish sur'atlari haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022 yilning 26 yanvar kuni O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks va jadal rivojlantirish[2], zamonaviy ish o'rinlari yaratish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar belgilanganligini, xususan, kelgusi besh yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 100 milliard dollardan oshirish maqsad qilingan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,4 baravar ko'paytirish va kambag'allik darajasini kamida 2 baravar qisqartirish rejalashtirilganligini alohida ta'kidlab o'tdi[3]. Albatta, respublikada raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish borasidagi tarkibiy o'zgarishlar mehnat unumdorligini oshirish hisobiga amalga oshiriladi.

Avvalo samaradorlik tushunchasining lug'aviy ma'nosiga izoh beriladigan bo'lsa, bir qator ilmiy adabiyotlarda (efficiency –inglizcha) (efficientia –lotincha) bir nechta tarjimaviy talqinga ega. Birmuncha keng tarqalgan “efficiency” iborasini “samaradorlik, mahsuldorlik, harakatchanlik qobiliyati va operativlik”[4]. kabi tushunchalar bilan izohlash mumkin. Samaradorlik tushunchasiga ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular o'zlarining qarashlarini bayon qilganlar. Masalan, respublikaning yetuk olimlari ham samaradorlik tushunchasi bo'yicha o'zlarining qarashlarini bayon qilganlar. Xususan, akademik Q.X.Abdurahmonov tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: “Samaradorlik tushunchasi nihoyatda keng tushunchadir, u olingan samaraning sarflarga nisbatini aks ettiradi”[5].

Tadqiqotlar davomida bir qancha chet ellik olimlar tomonidan mehnat samaradorligini o'rganishda uni ishlab chiqarish samaradorligiga ham tenglashtirib o'tishgan. Ishlab chiqarish samaradorligi sanoat korxonalarida mehnat, moddiy, tabiiy resurslarining mahsulot ishlab chiqarishda qanchalik darajada foydali ishlatilishini ifodalaydi. Uning darajasini kompleks ko'rsatkichlar yordamida hisoblash mumkin. Ularda eng muhimi bu moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar, mehnat unumdorligi, fond qaytimi, mahsulot sifati va tannarxi

kabi ko'rsatkichlarning har bir-birligiga teng yaratilgan mahsulot hajmidir. Ishlab chiqarish samaradorligining mehnat unumdorligidan farqi shundaki, samaradorlik ishlab chiqarish jarayoni doirasidan chetga chiqib iste'mol davrining ham samarasini ifodalaydi. Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jamiyatda real milliy daromad o'sishining 80 foizi mehnat unumdorligi o'sishi hisobiga va faqat 20 foizi mehnat sarflari hisobiga to'g'ri keladi. Mehnat unumdorligi 2 ta tur: ijtimoiy va individual mehnat unumdorligidan iborat. Ijtimoiy mehnat unumdorligi mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan jonli mehnatni emas, balki buyumlashgan mehnat sarflarini ham aks ettiradi [6].

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi mehnat samaradorligining muhim ko'rsatkichidir, uning natijasi mehnat mahsuli tarzida (vaqt yoki qiymat birliklarida) ifodalanadi. Mehnat samaradorligi mehnat unumdorligidan farqli o'laroq, nafaqat mehnat natijasini, balki mehnat hajmi va uning sifatini ham namoyon etadi. Mehnat sifati deganda, ikki ma'noni tushunmoqlik lozim. Tor ma'noda: mahsulot sifatini, keng ma'noda: ijtimoiy foydaliligi, mehnat natijalarining qo'yilgan talablarga javob berishini ifodalaydi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy maqsadi aholi farovonligiga erishishdan iborat. Jahon banki nuqtayi nazaridan aholi farovonligiga erishishdan maqsad eng quyidagi 40 foiz aholining daromadlarini oshirishdan iborat. Barqaror iqtisodiy o'sish bo'lmasa, kam ta'minlanganlarning turmush darajasini oshirish qiyin. Biroq iqtisodiy o'sishning o'zigina farovonlikka erishish uchun yetarli emas. Umumiy farovonlikni yaxshilash uchun o'sish inklyuziv bo'lishi kerak – ya'ni aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qamrab olishi kerak [9]. Mehnat samaradorligining yana bir muhim jihati shuki, u o'z o'rnida mehnat resurslaridan foydalanishdagi tejamkorlikni, inson mehnat faoliyatining sermehnatligini ham ifodalaydi. Masalan, L.A.Kostin tomonidan: “mehnat samaradorligi mehnatning ijtimoiy jihatlarini, jumladan mehnat sharoitini yaxshilanishi va uning xavfsizligini oshirishni ifoda etadi” [6]. Har qanday jamiyatda kishilar moddiy farovonlikning moddiy asosi shu mamlakatning milliy moddiy boyligidir. Jamiyatning, kishilarning moddiy farovonlik ularga tegishli bo'lgan, ular ixtiyoridagi moddiy

ne'matlar yig'indisiga hamda joriy moddiy ishlab chiqarish darajasiga, olinayotgan daromadlarga, iste'mol qilinayotgan moddiy ne'matlar miqdori va sifatiga bog'liq. [8]

Shuni alohida qayd etish lozimki, mehnat samaradorligi mehnat sarflarining natijaviyligini ifodalaydi ekan, uni ikki yo'nalishga bo'lish mumkin: birinchi yo'nalish, ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, bunda ishlab chiqarish munosabatlari asosiy o'rinni egallaydi; ikkinchi yo'nalish, ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanish darajasini ifodalovchi tashkiliy-iqtisodiy samaradorlik. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik davlat va ishchi, davlat va korxona, korxona va ishchi o'rtasidagi mehnat sarflari hamda uning natijalari bo'yicha ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettirsa, mehnatning tashkiliy-iqtisodiy samaradorligi mehnat jarayonining moddiy-ashyoviy tomonini, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini, ularning joylashuvi va texnik proporsiyalarini ifodalaydi[6]. Shunday qilib, mehnat samaradorligi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari darajasini ko'rsatib, mehnat sarflari va natijalari o'rtasidagi munosabatni tavsiflaydi. Bunday yondashuv, tadqiqotimizning asosiy jihatlarini kengaytirib, munosib mehnat tamoyillariga amal qilish imkonini beradi.

Shuni qayd etish lozimki, sanoat korxonalarida mehnat samaradorligi ko'rsatkichining oshishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligida mehnat sarfi kamayishini, mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmining oshishini ta'minlaydi. Mehnat samaradorligi mehnat sarflari natijaviyligini ifoda etishini hisobga olib ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorlikni namoyon etadi. Bu samaradorlik ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari darajasini ko'rsatib, mehnat sarfi va natijalari o'rtasidagi munosabatni tavsiflaydi[7]. Sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari bilan korxonalarda innovatsion texnologiyalarni faoliyatga joriy etib borish, ishlab chiqarish xom-ashyosi bo'lgan tabiiy resurslarning yangi zahira manbalarini izlab topish va foydalanish, boshqaruvning zamonaviy usullarini

qo'llash, mehnatni samarali rag'batlantirish, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishning muvofiqligi nazarda tutiladi.

XULOSA

Mehnat samaradorligini oshirish orqaligina mamlakat iqtisodiy jihatdan taraqqiy topadi. Davlatning barqaror iqtisodiy o'sishi natijasida esa aholi farovonligi yanada oshadi. Eng asosiy vazifa barcha keng imkoniyatlarni ishga solish, ulardan foydalanish, ayni paytda mehnat samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiladigan omillarni bartaraf etishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. 2023 yil 190-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
2. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi"- 2022. <https://uzlidep.uz/news-of-uzbekistan/11216>.
3. Мюллер Д.К. "Англо-русский словарь". -М.: "Русский язык", 1992. — С. 233-234
4. Абдурахмонов Қ.Х. "Меҳнат иқтисодиёти". -Т.: "Меҳнат", 2004. -398 б.
5. Толаметова З.А. Меҳнат унумдорлигини оширишда таълим тизимининг ўрни. Иқтисодиёт ва молия / Экономика и финансы. -Т.:2013. - №8- 42 б.
6. Костин Л.А. Производительность труда технический прогресс. -М.: "Экономика", - 1994. -82 с.
7. Ж.Ш. Тухтабаев. Саноат корхоналарида меҳнат унумдорлигини омили таҳлил қилиш услуги. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. Т.: 2016.- №2- 25 б.
8. Қурбонов С. Унумли бандлик тақчиллиги даражасини баҳолашнинг камбағалликни қисқартиришдаги зарурати. // "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал. Т.: 2023. - №2 -10 б.
9. Айвазян С.А., Степанов В.С., Козлова М.И. Измерение синтетических категорий качества жизни населения региона и выявление ключевых направлений совершенствования социально-экономической политики (на примере Самарской области и ее муниципальных образований). // Прикладная эконометрика.- Т.: 2006. -№2- С.18-84
10. Berkinov B.B., Mamatova F.X. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari. Risola. - Т.: "TDIU", 2011. - 60 б.